

## JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma'lumot)

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 232,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,5 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 180,3 % ni tashkil etdi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**  
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>128,9</b>	<b>232,4</b>	<b>180,3</b>	<b>x</b>
<b>Eksport</b>	<b>59,8</b>	<b>74,0</b>	<b>123,8</b>	<b>100,0</b>
tovarlar	59,7	73,9	123,8	99,9
xizmatlar	0,1	0,1	103,9	0,1
<b>Import</b>	<b>69,1</b>	<b>158,4</b>	<b>2,3 m</b>	<b>100,0</b>
tovarlar	69,1	158,4	2,3 m	100,0
xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0
<b>Saldo</b>	<b>-9,3</b>	<b>-84,4</b>	<b>x</b>	<b>x</b>

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini **shakllantirishda**, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda TIF TN) bilan birlashtirilgan standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 74,0 mln. AQSh dollariga (23,8 % ga oshdi) va import hajmi 158,4 mln. AQSh dollariga (2,3 m % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida -84,4 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**JIZZAX VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR  
(2022- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi,% da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Koreya	46,8	0,1	46,7	20,1
Xitoy Xalq Respublikasi	45,5	15,2	30,3	19,6
Turkiya	36,8	20,8	16,0	15,8
Rossiya Federatsiyasi	31,1	13,8	17,3	13,4
Litva	23,2	0,1	23,1	10,0
Qozog'iston	15,3	8,9	6,4	6,6
Germaniya	4,5	1,4	3,1	1,9
Qirg'iziston	3,8	1,5	2,3	1,6
Ukraina	3,7	0,3	3,4	1,6
Italiya	3,3	2,6	0,7	1,4

Viloyatimiz jahoning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreyada (20,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (19,6 %), Turkiyada (15,8 %), Rossiya Federatsiyasida (13,4 %), Litva (10,0 %), Qozog'istonda (6,6 %), Germaniyada (1,9 %), Qirg'izistonda (1,6 %) Ukrainada (1,6 %) va Italiyada (1,4 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da MDH davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoxda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Turkiya hissasiga to'g'ri kelgan.

Rossiya Federatsiyasi  
13,4 mln. AQSh dollarri

Qozog'iston  
6,6 mln. AQSh dollarri



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 dan ortiq yirik hamkor-davlatlar orasidan 8 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Koreya (46,8 mln. AQSh dollarri), Xitoy Xalq Respublikasi (45,5 mln. AQSh dollarri), Turkiya (36,8 mln. AQSh dollarri), Rossiya Federatsiyasi (31,1 mln. AQSh dollarri), Litva (23,2 mln. AQSh dollarri), Qozog'iston (15,3 mln. AQSh dollarri), Germaniya (4,5 mln. AQSh dollarri), Qirg'iziston (3,8 mln. AQSh dollarri), Ukraina (3,7 mln. AQSh dollarri) va Italiya (3,3 mln. AQSh dollarri) shular jumlasidandir. Qolgan davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**JIZZAX VILOYATINING 20 TA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**  
*(2022-yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollar)*

Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>6,2</b>	<b>14,0</b>	<b>46,8</b>
Eksport	0,0	0,0	0,1
Import	6,2	14,0	46,7
Saldo	-6,2	-14,0	-46,6
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>48,2</b>	<b>45,4</b>	<b>45,5</b>
Eksport	4,1	19,6	15,2
Import	44,1	25,8	30,3
Saldo	-40,0	-6,2	-15,1
<b>Turkiya</b>	<b>12,7</b>	<b>15,4</b>	<b>36,8</b>
Eksport	7,4	10,0	20,8
Import	5,2	5,4	16,0
Saldo	2,2	4,6	4,8
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>17,1</b>	<b>18,1</b>	<b>31,1</b>
Eksport	9,7	13,7	13,8
Import	7,3	4,4	17,3
Saldo	2,4	7,3	-3,5
<b>Litva</b>	<b>17,1</b>	<b>3,2</b>	<b>23,2</b>
Eksport	<b>0,0</b>	0,0	0,1
Import	17,1	3,2	23,1
Saldo	-17,1	-3,2	--23,0
<b>Qozog'iston</b>	<b>2,8</b>	<b>8,9</b>	<b>15,3</b>
Eksport	2,1	5,5	9,0
Import	0,7	3,4	6,3
Saldo	1,4	2,1	2,7



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Germaniya</b>	<b>1,2</b>	<b>1,6</b>	<b>4,5</b>
Eksport	0,0	0,0	1,4
Import	1,2	1,6	3,1
Saldo	-1,2	-1,6	-1,7
<b>Qirg'iziston</b>	<b>1,5</b>	<b>1,4</b>	<b>3,8</b>
Eksport	1,5	1,6	1,5
Import	0,0	1,8	2,3
Saldo	1,5	-0,2	-0,8
<b>Ukraina</b>	<b>0,4</b>	<b>0,6</b>	<b>3,7</b>
Eksport	0,3	0,4	0,3
Import	0,1	0,2	3,4
Saldo	0,2	0,2	-3,1
<b>Italiya</b>	<b>1,0</b>	<b>1,7</b>	<b>3,3</b>
Eksport	0,7	1,7	2,6
Import	0,3	0,0	0,7
Saldo	0,4	1,7	1,9
<b>Afg 'oniston</b>	<b>0,4</b>	<b>1,7</b>	<b>2,9</b>
Eksport	0,4	1,7	2,6
Import	0,0	0,0	0,3
Saldo	0,4	1,7	2,3
<b>Tojikiston</b>	<b>2,0</b>	<b>1,7</b>	<b>2,7</b>
Eksport	2,0	1,5	1,1
Import	0,0	0,2	1,6
Saldo	2,0	1,3	-0,5
<b>Pokiston</b>	<b>0,5</b>	<b>2,7</b>	<b>2,5</b>
Eksport	0,5	2,7	0,8
Import	0,0	0,0	1,7
Saldo	0,5	2,7	-0,9




## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Hindiston</b>	<b>0,7</b>	<b>1,5</b>	<b>1,6</b>
Eksport	0,1	0,2	0,5
Import	0,6	1,3	1,1
Saldo	-0,5	-1,1	-0,6
<b>Polsha</b>	<b>0,5</b>	<b>0,7</b>	<b>1,5</b>
Eksport	0,5	0,5	1,4
Import	0,0	0,2	0,1
Saldo	0,5	0,3	1,3
<b>Eron</b>	<b>0,8</b>	<b>1,3</b>	<b>1,0</b>
Eksport	0,2	0,7	0,3
Import	0,6	0,6	0,7
Saldo	-0,4	0,1	-0,4
<b>Belarus</b>	<b>0,9</b>	<b>0,5</b>	<b>0,7</b>
Eksport	0,3	0,0	0,2
Import	0,6	0,5	0,5
Saldo	-0,3	-0,5	-0,3
<b>Gruziya</b>	<b>0,9</b>	<b>0,1</b>	<b>0,6</b>
Eksport	0,2	0,0	0,1
Import	0,7	0,1	0,5
Saldo	-0,5	-0,1	-0,4
<b>Bangladesh</b>	<b>0,2</b>	<b>0,4</b>	<b>0,5</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,2	0,4	0,5
Saldo	-0,2	-0,4	-0,5
<b>Kanada</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,5</b>
Eksport	0,0	0,0	0,5
Import	0,0	0,0	0,0
Saldo	0,0	0,0	0,5

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga tayanib, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 25,0 % ni tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan ulushi 0,4 % ga ko'paydi.



**JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH  
MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJUY DAVLATLARNING HAJMLARI  
DINAMIKASI**  
*(2022- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)*




Boshqa xorijiy davlatlarning 2022- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 75,0 % tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 0,4 % ga kamaydi.

## JIZZAX VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-aprel)

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning eksportyorlari soni 94 tani tashkil etib, ular tomonidan 74,0 mln. AQSh dollarini (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 23,8 % ga oshdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, sanoat tovarlari (57,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (26,8 %), turli xil tayyor buyumlar (8,5 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (2,5 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (3,8 %), mashina va asbob-uskunalar (0,9 %), xizmatlar (0,2 %), hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar (0,1 %) guruhni hissasiga to'g'ri kelmoqda.





**MDH VA BOSHQA XORIJUY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI**  
**(2022- yil yanvar- aprel, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollarri	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiylajmaga nisbatan, % da	mln. AQSh dollarri	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiylajmaga nisbatan, % da	mln. AQSh dollarri	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiylajmaga nisbatan, % da
<b>Jami eksport</b>	<b>74,0</b>	<b>123,8</b>	<b>100,0</b>	<b>26,3</b>	<b>119,0</b>	<b>100,0</b>	<b>34,5</b>	<b>117,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar	19,8	2,1 m	26,8	6,3	146,8	23,9	13,5	2,6 m	28,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,9	124,9	2,5	1,0	2,6 m	3,7	0,9	81,1	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,0	0,1	0,1	0,0	0,2	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,8	130,7	3,8	0,4	79,2	1,6	2,4	146,9	5,0
Sanoat tovarlari	42,3	105,1	57,2	11,7	110,6	44,4	30,6	103,2	64,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,6	159,5	0,9	0,5	144,8	2,0	0,1	2,7 m	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	6,3	108,0	8,5	6,3	107,2	23,9	0,0	0,0	0,1
Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,1	103,9	0,2	0,1	87,0	0,3	0,0	170,9	0,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari guruhiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinalar oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar guruhini hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI  
(2022-yil yanvar-aprel, % da)**

XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,9	15,9	26,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,1	2,5	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,7	0,0	0,1
Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,4	3,6	3,8
Sanoat tovarlari	64,5	67,3	57,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	1,2	0,7	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	13,8	9,8	8,5
Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,4	0,2	0,2

2022- yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning yanvar- apreliga nisbatan sanoat tovarlari guruhida kamayish kuzatildi.



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR  
EKSPORTI TARKIBI  
(2022- yil yanvar-aprel)**

XSST bo'lumi nomi	Min. AQSh dollari	2021- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	16,5	2,3 m
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,0	183,8
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalangan donlardan tashqari)	0,0	1,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,3	102,6
Shakar va shakarli maxsulotlar	0,0	14,0
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,9	97,4
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,0	3,2
Metall rudalari va metall parchalari	0,0	0,0
Qog'oz massasi va makulatura	0,0	0,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	0,1	173,8
Yog' urug'lari	0,9	2,8 m
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,1	0,0



<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>			
Noorganik kimyo moddalari	0,0	0,0	
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,0	0,0	
O'g'itlar	1,1	117,8	
Boshqa joyda tafsiflanmagan kimyoviy maxsulotlar	0,0	152,1	
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,4	133,0	
Birlamchi bo'limgan plastik	0,3	194,6	
<b>Sanoat tovarlari</b>			
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	38,7	103,3	
Yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	0,0	0,0	
Cho'yan va po'lat	0,0	0,0	
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3,5	135,0	
Metalldan tayyorlangan buyumlar	0,1	119,3	
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>			
Avtomobillar	0,0	0,0	
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoj qismlari	0,4	122,0	
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	0,1	0,0	
Muayyan tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarilgan mashinalar	0,0	53,0	
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	0,0	0,0	
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>			
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	6,2	105,9	
Poyabzal	0,2	33,6 m	
Har xil tayyor buyumlar	0,0	29,1	
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	0,0	0,0	

O'tgan yilga nisbatan umumiy eksport hajmi oshdi va MDH mamlakatlarining jami eksportdag'i ulushi 2021-yil yanvar-aprel oylaridagi 37,0 % dan, 2022-yilning yanvar- aprel oylarida 35,5 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdag'i ulushi 2021- yilning shu davrida 63,0 % ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar- aprel oyida 64,5 % ga ko'paydi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollar'i, ulushi, % da)




2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida, Turkiya (28,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 20,6 %), Rossiya Federatsiyasi (18,6 %), Qozog'iston (12,1 %), Italiya (3,5 %) va Afg'oniston (3,5 %) davlatlari

egallab turibdi, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 86,4 foizni tashkil etmoqda.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2022- yil yanvar-aprel, % da)**



2022- yilning yanvar-aprel oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Turkiya yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Xitoy egalladi. Xitoydan ozgina ortda qolgan Rossiya Federatsiyasi uchinchigi pog'onani, Qozog'iston esa to'rtinchi pog'onani egallab turibdi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi (2021- yilning mos davriga nisbatan 88 ta davlat) 94 ta davlat bilan amalga oshdi.



**JIZZAX VILOYATINING 20 TA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(2022 yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)

Davlatlar	Mln. AQSh dollarri		Jami eksportga nisbatan ulushi va o'sish sur'ati % da	O'rni		
	2021- y.	2022- y.		O'tgan yilga nisbatan, % da	Ulushi	2021- y.
Turkiya	10,0	20,8	2,1 m	28,1	3	1
Xitoy	19,6	15,2	77,5	20,6	1	2
Rossiya	13,7	13,8	100,7	18,6	2	3
Qozog'iston	5,5	9,0	161,7	12,1	4	4
Afg'oniston	1,7	2,6	154,8	3,5	7	5
Italiya	1,7	2,6	152,2	3,5	6	6
Qirg'iziston	0,7	1,5	2,2 m	2,0	10	7
Polsha	0,5	1,4	3,0 m	1,9	11	8
Germaniya	0,0	1,4	0,0	1,9	0	9
Tojikiston	1,5	1,2	79,2	1,6	8	10
Pokiston	2,7	0,8	29,3	1,1	5	11
Kanada	0,0	0,5	0,0	0,7	0	12
Hindiston	0,2	0,5	182,5	0,6	14	13
Ispaniya	0,1	0,4	6,4 m	0,5	17	14
Eron	0,7	0,4	47,4	0,5	9	15
Ukraina	0,4	0,3	73,3	0,4	12	16
Turkmaniston	0,0	0,3	0,0	0,4	0	17
Peru	0,0	0,2	0,0	0,3	0	18
Belarus	0,0	0,2	0,0	0,2	0	19
Gruziya	0,0	0,2	18,1 m	0,2	0	20



Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari guruhlari kiradi.



**VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)**

XSST tarkibi	Turkiya		Xitoy		Rossiya		Qozog'iston	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>10,0</b>	<b>20,8</b>	<b>19,6</b>	<b>15,2</b>	<b>13,7</b>	<b>13,8</b>	<b>5,5</b>	<b>9,0</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,1	0,4	3,1	9,4	0,2	0,1	3,4	5,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,7	0,5	0,3	0,1	0,0	0,0	0,1	0,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	0,0	1,0	1,4	0,0	0,0	0,1	0,1
Sanoat tovarlari	9,2	19,8	15,3	4,4	7,6	7,8	1,8	2,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,2	0,4	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	5,6	5,3	0,1	0,2
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	0,1	0,0	0,0

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki Turkiya, Xitoy, Rossiya va Qozog'iston davlatlariga eksportning asosiy ulushi oziq-ovqat maxsulotlari va sanoat tovarlari guruhi hissasiga to'g'ri keladi.


### JIZZAX VILOYATIINING IMPORTI (2022- yil yanvar-aprel)

2022-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning importyori soni 253 tani tashkil etib, ular tomonidan 158,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2021-yilning mos davriga nisbatan 2,3 martaga oshdi) tovar va xizmatlar import qilinishi ta'minlandi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (71,5 %) va sanoat tovarlari (9,8 %) guruhi hisobiga to'g'ri keladi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,3 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 158,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollarri	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollarri	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollarri	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami import</b>	<b>158,4</b>	<b>2,3 m</b>	<b>100,0</b>	<b>31,8</b>	<b>3,3 m</b>	<b>100,0</b>	<b>126,6</b>	<b>2,1 m</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,2	167,2	7,0	8,2	185,5	25,9	2,9	130,7	2,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,0	3,6 m	1,9	2,3	23,3 m	7,1	0,7	98,7	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,3	2,4 m	0,8	1,3	2,4 m	4,1	0,0	2,1 m	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	10,7	144,0	6,8	2,5	150,4	7,9	8,2	142,2	6,4
Sanoat tovarlari	15,5	178,8	9,8	7,9	5,3 m	24,8	7,6	106,3	6,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	113,2	2,9 m	71,5	9,3	13,8 m	29,2	103,9	2,7 m	82,1

Turli xil tayyor buyumlar	3,5	69,4	2,2	0,3	62,3	0,9	3,2	70,1	2,5
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan sanoat tovarlari 13,3 % dan 10,5 % ga va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 11,5 % dan 7,8 % ga kamaydi . Mashinalar va transport asbob-uskunalarini importining ulushi esa 48,5 % dan 68,4 % ga oshdi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI  
(2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami import</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,3	9,7	7,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,8	1,2	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga O'xhash materiallar	0,5	0,8	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,3	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	6,7	10,7	6,8
Sanoat tovarlari	13,5	12,6	9,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	65,0	57,5	71,5
Turli xil tayyor buyumlar	6,2	7,2	2,2
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0



**XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR TARKIBI  
(2022- yil yanvar-aprel)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	2021- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,3	176,8
Tirik hayvonlar	3,7	110,0
Sut maxsulotlari	0,1	44,1
Meva va sabzavotlar	3,0	21,6 m
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,2	194,1
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanganmagan donlardan tashqari)	0,7	140,8
Go‘sht va g‘osht maxsulotlari	0,1	33,9
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>		
Probka va yog‘och-taxtalar	0,1	64,8
Metall rudalari va metall parchalari to‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,0	0,0
Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,4	92,3
O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,6	170,7
Kauchuk va rezina	0,0	0,0
<b>Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	0,4	79,6
Ko‘mir, koks va briketlar	0,9	16,2 m
<b>Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar</b>		
O‘simlik moylari va yog‘lari	0,0	0,0
Hayvon va o‘simlik moylari va yog‘lari	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2,6	117,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,1	172,3




## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Birlamchi shakldagi plastmassalar	3,5	2,2 m
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,1	167,1
Organik kimyo moddalari	0,5	45,4
Kraska va bo'yoq vositalari	0,2	3,1 m
Noorganik kimyo moddalari	0,8	100,7
Birlamchi bo'limgan plastik	1,3	2,1 m
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	7,1	4,0 m
Metalldan tayyorlangan buyumlar	1,2	101,7
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	0,9	81,5
Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlari	0,3	84,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,2	167,7
Rangli metall	0,7	77,9
Qog'oz va karton	0,1	64,0
Yog'ochdan ishlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,0	0,2
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	47,9	3,4 m
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	7,4	187,0
Avtomobillar va extiyot qismlari	0,0	0,0
Ish yuritish va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunalarini	0,0	0,6
Elektr mashinalari, apparatlari, asboblar va ularning ehtiyyot qismlari	3,7	105,1
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalarini	0,1	8,1
Energogenerator mashina uskunalarini	0,2	135,4
Boshqa transport uskunalarini	0,0	0,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	0,7	20,0
Blokli binolar, SUV o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalarini uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1,7	4,0 m
Har xil tayyor buyumlar	1,0	126,9
Poyafzal	0,0	0,0
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,02	7,6
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,02	12,3



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA  
XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-aprel, mln. AQSh dolları, ulushi, % da)



2021- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori oltilikda o'zgarish kuzatilmadi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar importi bo'yicha geografiyasi (2021- yilning mos davriga nisbatan 203 ta davlat) 366 ta davlat bilan amalga oshdi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK  
HAMKOR DAVLATLAR  
(yanvar-aprel)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollarri		Jami importga nisbatan ulushi va o'sish sur'ati % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	O'tgan yilga nisbatan, % da	Ulushi	2021- y.	2022- y.
Koreya Respublikasi	14,0	46,7	3,3 m	29,5	2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	25,8	30,3	117,5	19,1	1	2
Litva	3,2	23,2	7,1 m	14,6	6	3
Rossiya	4,4	17,3	4,0 m	10,9	4	4
Turkiya	5,4	16,0	3,0 m	10,1	3	5
Qozog'iston	3,4	6,4	187,2	4,0	5	6
Ukraina	0,2	3,4	14,8 m	2,1	18	7
Germaniya	1,6	3,1	188,9	2,0	9	8
Qirg'iziston	0,8	2,3	3,0 m	1,5	11	9
Pokiston	0,0	1,7	56,7 m	1,0	0	10
Tojikiston	0,2	1,6	7,1 m	1,0	19	11
Hindiston	1,3	1,1	84,2	0,7	10	12
Italiya	0,0	0,7	20,2 m	0,5	0	13
Eron	0,6	0,7	111,2	0,4	12	14
Belarus	0,5	0,5	102,7	0,3	13	15
Bangladesh	0,4	0,5	121,4	0,3	14	16
Gruziya	0,1	0,5	5,2 m	0,3	0	17
Afg'oniston	0,0	0,3	37,9 m	0,2	0	18
Avstriya	0,4	0,3	74,6	0,2	15	19
BAA		0,3	0,0	0,2	0	20



2022 yil yanvar-aprel oylarida import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Koreya Respublikasi umumiyl import hajmi 29,5 % ulushi bilan birinchi o'rinni egallab, Xitoy Xalq Respublikasini umumiyl import hajmida 19,1 % ulushi bilan ikkinchi o'ringa tushirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar Koreya Respublikasi (29,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (19,1 %), Litva (14,6 %) Rossiya Federatsiyasi (10,9 %), Turkiya (10,1 %), Qozog'iston (4,0 %), Ukraina (2,1 %) va Germaniya (2,0 %) jami importning 92,4 % ulushini egalladi va 146,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston davlatlari tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (72) 221 51 26  
bo'limi**